

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.09/31.08.2022.I.151.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TILAVOLDIYEV NODIR XOKIMOVICH

**O‘ZBEKISTON KAPITAL BOZORIDA INSTITUTSIONAL
INVESTORLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISH**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Tilavoldiyev Nodir Hokimovich

О‘zbekiston kapital bozorida institutsional investorlar tizimini rivojlantirish3

Тилаволдиев Нодир Хокимович

Совершенствование системы институциональных инвесторов на рынке капитала Узбекистана.....27

Tilavoldiev Nodir Hokimovich

Improving institutional investor system in the capital market of Uzbekistan.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.09/31.08.2022.I.151.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TILAVOLDIYEV NODIR XOKIMOVICH

**O‘ZBEKISTON KAPITAL BOZORIDA INSTITUTSIONAL
INVESTORLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISH**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023-yil

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Iqt1707 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.bfa.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Jumayev Nodir Xosiyatovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Tashmurodova Buvsara Egamovna iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent shahri filiali

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.9/31.08.2022.I.151.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "___"_____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Movarounnaxr ko'chasi, 16-uy. Tel.: (99871) 237-54-01, faks: (99871) 237-50-11. e-mail: office@bfa.uz.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Movarounnaxr ko'chasi, 16-uy. Tel.: (99871) 237-54-09, faks: (99871) 237-50-11. E-mail: office@bfa.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "___"_____ kuni tarqatildi.
(2023-yil "___"_____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

E.A.Xoshimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, i.f.d., dotsent

Sh.A. Xusainov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.n.

S.E. Elmirzayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda institutsional investorlar tomonidan investitsiya mablag'laridan kapital bozorida professional tarzda foydalanishi hamda ularning moliya bozorida investor sifatidagi faoliyatini kengaytirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Kapital bozorida institutsional investor sifatida banklar va sug'urta kompaniyalari faoliyati jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. "2022-yilda sug'urta kompaniyalarining institutsional investor sifatida faoliyat ko'rsatkichlari 2021-yilga nisbatan o'zgarmagan, ya'ni 2022-yilda obligatsiyalar miqdori investitsiyalarning 69,4 foizini, 2021-yilda 64,6 foizini, aksiyalar va pul mablag'lariga esa mos ravishda 10,4 va 9,7 foizni tashkil qilgan"¹. Bu esa kapital bozorida institutsional investorlar tizimini rivojlantirishni taqozo etadi.

Jahonda xalqaro ilmiy markazlar va tadqiqot institutlari tomonidan tijorat banklari va sug'urta kompaniyalarining kapital bozoridagi faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, fond bozorida institutsional investor sifatidagi faoliyatiga oid izlanishlarga e'tibor qaratilmoqda, shuningdek, institutsional investorlarning dividend siyosati, fond bozoridagi faoliyati, undagi risklarni sug'urtalash, ular o'rtasidagi raqobat muhitini yaratish qo'shimcha va arzon moliyaviy resurs jalb qilish, investitsiya tamoyillariga javob beradigan moliyaviy instrumentlar sonini oshirish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "27-maqсад – Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSH dollaridan 7 milliard AQSH dollariga yetkazish"² – vazifasi belgilangan. Taraqqiyot strategiyasida mamlakatimizda kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish hamda yirik korxonalarni va ulardagi ulushlarni (aksiyalarni), shu jumladan, fond birjasi orqali xorijiy kapital oqimlarini asosan o'rta va uzoq muddatga jalb qilish, davlat qimmatli qog'ozlarini norezidentlar tomonidan xarid qilishga ruxsat berish, korporativ qimmatli qog'ozlar bozorida likvidlikni oshirish, davlat ulushi mavjud korxonalarda xususiy lashtirish jarayonlariga xorijiy investorlar va xalqaro moliya institutlarini jalb qilish vazifalari aniq muddatlar bilan belgilab berilgan. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashda institutsional investor faoliyatini rivojlantirish, ularning kapital bozoridagi faolligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni asoslash dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son, 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6207-son farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-102-son, 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish

¹ <https://www.oecd.org/pensions/Insurance-Markets-in-Figures-2022.pdf>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.

chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5073-son, 2019-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4412-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 26-apreldagi "Fond birjasida aksiyalarning birlamchi va ikkilamchi ommaviy takliflarini (IPO va SPO) o'tkazishni tashkil etish to'g'risida" 358-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining davlat g'aznachilik majburiyatlari va obligatsiyalarini muomalaga chiqarishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 14-dekabrda 1016-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi 82-son qarori shuningdek mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kapital bozorida institutsional investorlar tizimini rivojlantirish bilan bog'liq masalalarning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlari M.Djonk, E.Dolan, V.Sibulnikova, N.Berzona, O.Lavrushin, B.Rubsov, A.Kilyachkov, L.Chaldayeva, G.Beloglazova, L.Kroliveskaya, N.Ivanov, N.Juravleva, D.Lopatkin, L.Ulibina ³kabi xorijiy iqtisodchi olimlarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan I.Butikov, Sh.Abdullayeva, T.Bobakulov, T.Qoraliyev, O.Sattarov, A.Omonov, S.Elmirzayev, U.Ortiqov, V.Kotov, Sh.Teshayev, M.Xamidulin, Sh.Shoxa'zamiy, F.Muxamedov, A.Xo'jamurodov, X.X.Xudoyqulov, N.R.Tursunova, J.I.Karimqulov, A.A.Shomirov ⁴ va

³ Джонк М.Д. Основы инвестирования. – М.: Издательство "Дело", 1997.- С.41-44., Долан Э. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. Пер.с англ. М: Кемпбелл, 1996. -448 с; Рынок ценных бумаг: учебное пособие/ В.Ю.Цибулькикова.–Томск: ФДО, ТУСУР, 2016. – 167 с., Рынок ценных бумаг: учебник для академического бакалавриата / под общ. ред. Н.И.Берзона. – 4-е изд., пераб. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2019. – 443 с., Лаврушин О.И. Основы банковского дела: учебное пособие/коллектив авторов.4-е издание. –М.: Кнорус, 2018. -386с.; Рубцов Б.Б. Современные фондовые рынки. –М.: Альпина Бизнес Букс, 2006. -4423.; А.А.Килячков, Л.А.Чалдаева Рынок ценных бумаг и биржевое дело. –М.: Юристъ, 2005. -687 с.; Банковское дело. Учебник для вузов.2-е изд. /Под ред. Г.Белоглазовой, Л.Кроливцевкой. –СПб.: Питер, 2008. -400.; Иванов Н.И. «Инвестиционная деятельность страховых организаций на рынке ценных бумаг», дис. канд. экон. наук: 08.00.10 – Москва, 2006. – 165 с.; Журавлева Н.В, Лопаткин Д.С.. Анализ мирового рынка взаимного страхования, Текст научной статьи по специальности «Экономика и бизнес», 2014 – 7 с.; Улыбина Л.К., «Глобализации» issue 3 (127), 2014. – Рр. 69–77.

⁴ 4 Бутиков И.Л., Рынок ценных бумаг Узбекистана: новые горизонты, Finance.uz, 2019.; Абдуллаева Ш.З. Пул ва банклар. –Т.: 2010. 425 б.; Бобакулов Т.И. Ўзбекистон Республикасида миллий валюта курсининг баркарорлигини таъминлаш борасидаги муаммолар ва уларни хал қилиш йўллари. и.ф.д. илм. даража. олиш учун баж. дис. авт. –Т.: 2008, БМА, 36 б.; Қоралиев Т.М. Саттаров О.Б. ва бошқалар. Тижорат банклари фаолияти таҳлили. Ўқув қўлланма. –Т.: "Иқтисод-Молия", 2013. 192 б.; Омонов А.А Тижорат банкларининг ресурсларини самарали бошқариш масалалари. Монография. "Фан ва технологиялари", 2010 йил, 210 б.; Элмирзаев С.Э Капитал бозори. Дарслик. – Т.: "Nihol print" ОК, 2022. – 192 б.; Ортиқов У.Д. Банк ресурслари ва уларни бошқариш. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. ЎЗР БФА. –Т., 2008. -20 б., Бутиков И.Л. Рынок ценных бумаг. –Т.: Консаудитинформ. 2001. - 850 с.; Котов В.А., Тешаев Ш.Ж., Хамидулин М.Б. Рынок капитала Узбекистана: вчера, сегодня, завтра. –Т.: Молия, 2002. -268 с.; Шохазамий Ш.Ш. Финансовый рынок и ценные бумаги. Книги II. Учебник. –Т.: Iqtisod-moliya, 2005. -829 с.; Мухамедов Ф.Т. «Ўзбекистонда қимматли қоғозлар савдо тизимларини

boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida hamda asarlarida kapital bozori va institutsional investorlarning bozordagi faoliyati kabi masalalar atroflicha tadqiq qilingan.

Kapital bozorida institutsional investorlar tizimini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, mavzu kompleks va tizimli tarzda o'rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-1-son "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston kapital bozorida institutsional investorlar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy, amaliy va uslubiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

institutsional investorlarning kapital bozoridagi operatsiyalarining mazmun-mohiyatini ochib berish;

institutsional investorlarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalarining huquqiy asoslari o'rganib chiqish;

institutsional investorlarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatining xorij tajribasini o'rganish;

O'zbekiston kapital bozorida tijorat banklari faoliyati va ularning ko'rsatkichlari tahlil qilish;

O'zbekiston kapital bozorida sug'urta tashkilotlarining institutsional investor sifatidagi faoliyatini tahlil etish;

qimmatli qog'ozlar bozorida institutsional investorlar faoliyati samaradorligi tahlilini amalga oshirish;

institutsional investorlarning kapital bozoridagi faoliyatini rivojlantirish yo'llarini yoritib berish;

jahon tajribasidan kelib chiqib institutsional investorlarning kapital bozoridagi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obykti sifatida sifatida institutsional investorlarning kapital bozorida ishtirok etish mexanizmi tanlangan.

ривожлантириш йўналишлари» // Иқтисод фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т., 2019. – 60 б.; Хўжамуродов А. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида фонд бозори инфратузилмасини такомиллаштириш. и.ф. бўйича фал. док. (PhD) дисс. Авто. –Т.: ТМИ, 2019. 26 б., Худойқулов Х.Х. Акциядорлик жамиятларининг капитал қийматини баҳолашнинг методологик асосларини такомиллаштириш: DSc – Тошкент, 2021. – 17 б.; Туреунова Н.Р. Корпоратив молияни бошқаришда молиявий таъминотни самарали ташкил этиш йўллари: дисс. автореферати. PhD – Тошкент, 2019. – 15 б.; Ж.Каримкулов “Ўзбекистон иқтисодиётида қимматли қоғозлар бозори ролини ошириш йўллари”. Диссертация ИФН. -Т. 2012 й. 120 б.; Шомиров А.А. Акциядорлик жамиятлар молиявий ресурсларини бошқариш самарадорлигини ошириш йўллари: дисс. автореферати. PhD – Тошкент, 2019. – 21 б.

Tadqiqotning predmeti institutsional investorlarning kapital bozoridagi faoliyati jarayonida vujudga keladigan moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada umumlashtirish, tahlil, sintez, statistik ma'lumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil, taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining aksiya paketlarini birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklif etish orqali xususiylashtirish taklif etilgan;

o'z a'zolarining manfaatlarini ifoda etuvchi kapital bozori professional ishtirokchilarining o'zini-o'zi boshqaruvchi nodavlat birlashmasini tashkil etish asoslangan;

sug'urta tashkilotlarining kapital bozorida institutsional investor sifatida faol ishtirokini ta'minlash maqsadida respublikamizda faoliyat yuritayotgan va yangidan tashkil etilayotgan sug'urta tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakli aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etish (qayta tashkil etish) taklif etilgan;

davlat ulushi mavjud bo'lgan tashkilot aksiyalarini xususiy, shu jumladan, xorijiy institutsional investorlarga sotish sharti bilan qo'shimcha emissiya qilish orqali ularning ustav kapitalini oshirishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

institutsional investorlarning kapital bozoridagi faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri bo'lgan kompaniyalarda davlat ulushining yuqoriligini hisobga olib, davlat aktivlarini xususiylashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

sug'urta tashkilotlarining fond bozoridagi institutsional investor sifatidagi faoliyatini takomillashtirish maqsadida fond bozori instrumentlari tarkibiga maqbul instrumentlar turlarini muomalaga kiritish afzalliklari yoritilgan;

kapital bozori ishtirokchilarini har tomonlama huquqiy, iqtisodiy himoya qilish maqsadida nodavlat birlashma tashkil etish asoslangan;

O'zbekiston kapital bozorida tijorat banklari va sug'urta kompaniyalarining institutsional investor sifatidagi o'rni, ularning ishtirokini yanada kengaytirish borasida taklif va tavsiyalar asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi amalga oshirilgan usullarning xalqaro va milliy reyting tashkilotlarning rasmiy manbalaridan olinganligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, vazirlik huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi, "Toshkent" Respublika fond birjasi, Jahon banki, Markaziy bank ma'lumotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston kapital bozorida institutsional investorlar tizimini rivojlantirish, institutsional investorlarning vaqtincha bo'sh turgan qarz mablag'larini kapital bozori orqali real ishlab chiqarishga yo'naltirish, institutsional investorlar faoliyatini takomillashtirish bilan bog'liq maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar institutsional investorlarning kapital bozoridagi faoliyatini kelgusida yanada rivojlantirish bo'yicha qabul

qilinadigan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi amaliy ahamiyati sifatida izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston kapital bozorida institutsional investorlar tizimini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining aksiya paketlarini birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklif etish orqali xususiyashtirish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6207-son Farmonida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 17-yanvardagi 06/46-35-/52-son ma'lumotnomasi). Natijada 20 dan ortiq davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini fond bozorida birlamchi va ikkilamchi ommaviy joylashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi 446-sonli qarori qabul qilindi va "yo'l xaritasi" tasdiqlandi;

o'z a'zolarining manfaatlarini ifoda etuvchi kapital bozori professional ishtirokchilarining o'zini-o'zi boshqaruvchi nodavlat birlashmasini tashkil etish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6207-son Farmonida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 17-yanvardagi 06/46-35-/52-son ma'lumotnomasi). Bunda institutsional investorlar huquqlarini har tomonlama ishonchli himoya qilish, kapital bozori infratuzilmasini takomillashtirish orqali O'zbekistonga institutsional investorlar tomonidan kiritiladigan uzoq muddatli xorijiy investitsiyalar miqdorini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi;

sug'urta tashkilotlarining kapital bozorida institutsional investor sifatida faol ishtirokini ta'minlash maqsadida respublikamizda faoliyat yuritayotgan va yangidan tashkil etilayotgan sug'urta tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakli aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etish (qayta tashkil etish) bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida" O'RQ-730-son Qonunida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023-yil 14-apreldagi 02/2-05-493-son va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 17-yanvardagi 06/46-35-/52-son ma'lumotnomalari). Buning natijasida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan 41 ta sug'urta kompaniyalari faoliyati aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil (qayta tashkil) etildi hamda kapital bozorida institutsional investor sifatida faol ishtiroki ta'minlandi;

davlat ulushi mavjud bo'lgan tashkilot aksiyalarini xususiy, shu jumladan, xorijiy institutsional investorlarga sotish sharti bilan qo'shimcha emissiya qilish orqali ularning ustav kapitallarini oshirish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4412-son Qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023-yil 14-apreldagi 02/2-05-493-son va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining

2023-yil 17-yanvardagi 06/46-35-/52-son ma'lumotnomalari). Natijada 1115 ta korxonadagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) xususiy sektorga to'liq sotilishi belgilandi va kapital bozoriga uzoq muddatli moliyaviy resurslarga ega yirik institutsional investorlarni jalb qilishga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari bo'yicha 22 ta ish respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, uning obyekti va predmeti belgilangan, ilmiy tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mos ekanligi koʻrsatib oʻtilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keng bayon qilingan, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy etilganligi, bildirilgan takliflar Oʻzbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga kiritilganligi va tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, ularning eʼlon qilinganligi, tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar keltirib oʻtilgan.

Dissertatsiyaning “Kapital bozorida institutsional investorlar tizimini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida kapital bozori rivojlanishida institutsional investorlarning oʻrni va ahamiyati, oʻziga xos xususiyatlari, institutsional investorlar tizimini rivojlantirishning ilgʻor xorij tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlari yoritib berilgan.

Risk va noaniqlik sharoitida resurslarni toʻgʻri taqsimlash, jamgʻarmalarni investitsiyalarga transformatsiyalashuvida moliyaviy vositachilik tizimi muhim rol oʻynaydi. Moliyaviy vositachilar moliyaviy resurslarni ularning egalariga nisbatan samaraliroq joylashtirish imkoniyatiga ega boʻlib, buning sabablardan biri ularning shu sohaga chuqur ixtisoslashganliklaridir. Shunga qaramay, moliyaviy institutlar ham vaqt oʻtishi bilan yanada rivojlanib, jamgʻarmalarni investitsiyalashda faol ishtirok etuvchi institutsional investorlar sifatida muayyan mamlakat kapital bozori rivojlanishining muhim institutsional asosiga aylanishdi.

Respublikamizda ham investitsiyalarni qoʻllab quvvatlashda faqatgina bank tizimiga bogʻlanib qolmaslik uchun milliy kapital bozorini rivojlantirish, uning samarali faoliyat yuritishining institutsional asosi boʻlgan institutsional investorlar tizimini shakllantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hisobotlarida institutsional investorlar atamasiga murojaat qilingan boʻlib, unga koʻra institutsional investorlar kategoriyasiga uchinchi shaxslardan pul mablagʻlarini qabul qiluvchi va ularni keyinchalik mazkur shaxslar manfaatlarini yoʻlida oʻz nomidan investitsiyalarga joylashtiruvchi moliyaviy institutlar taalluqlidir⁵.


Xuddi shu singari qarash Jahon banki guruhi iqtisodchilarining ilmiy ishlarida ham kuzatiladi. Xususan, institutsional investorlar sifatida sugʻurta kompaniyalari, pensiya jamgʻarmalari va oʻzaro (mutual) investitsion fondlar keltirilgan.⁶

Soʻnggi paytlarda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar moliya tizimida banklar va institutsional investorlar oʻrtasida raqobat kuchayishi kuzatilmoqda. Fikrimizcha, bu holat, birinchidan, moliya tizimi samaradorligini oshirishga, ikkinchidan esa, moliyaviy innovatsiyalarni ragʻbatlantirishga xizmat qiladi. Albatta, bu yerda mamlakatlar tanlagan moliya tizimi modeliga qarab, institutsional investorlarning rivojlanganlik darajasi farq qilishi mumkin. Masalan, anglo-sakson mamlakatlarida institutsional investorlar eng muhim moliyaviy

⁵ OECD (2013). Role of Banks, Equity Markets and Institutional Investors in Long-Term Financing for Growth and Development — OECD 2013, P.15.


⁶ Dimitri Vittas. (1998) Institutional Investors and Securities Markets. Which comes First? The World Bank. Development Research Group. Finance, December 1998

vositachilarga aylanib ulgurgan bo'lsa, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida institutsional investorlarning roli sezilarli darajada emas.



1-rasm. Fond bozoridagi investorlar turlari⁷

Institutsional investorlarning asosiy turlari sifatida dastlab jamoaviy investitsiyalash institutlari, pensiya jamg'armalari va sug'urta kompaniyalari ajratib ko'rsatilgan bo'lsa, keyinchalik esa, institutsional investorlarning tarkibi yangi institutlar bilan boyidi va ularni tasniflashga zamonaviy yondashish zarurati paydo bo'ldi (2-rasm).



2-rasm. Institutsional investorlarning zamonaviy tasnifi⁸


Zamonaviy sharoitdagi moliya bozorlari murakkab tarkibiy tuzilmalardan tashkil topgan bo'lib, ularning tarkibiga pul bozori, kredit bozori, valyuta bozori, qimmatli qog'ozlar bozori va boshqa moliyaviy bozorlar kiradi. Tijorat banklari nafaqat qimmatli qog'ozlar bozori, balki kapital bozorining barcha tarkibiy tuzilmalarining faol ishtirokchisi hisoblanadi.

⁷ Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

⁸ Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari bir vaqtning o'zida emitent sifatida emissiya operatsiyalarini, investor sifatida esa investitsiya operatsiyalarini amalga oshiradi, bundan tashqari ular emitent va investorlarning xohish irodalariga ko'ra qimmatli qog'ozlar bozorida moliyaviy vositachi sifatida sotish va sotib olish operatsiyalarini ham amalga oshiradi.

Bugungi kunda, sug'urta ham eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib hisoblanadi. Sug'urta kompaniyasi boshqa moliyaviy institutlar (banklar, fond birjalari, investitsion fondlar va boshqalar) kabi mamlakat moliya bozorining ajralmas qismi hisoblanadi hamda Davlat moliya tizimining asosiy va muhim bo'g'inlaridan hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalarining ma'lum darajadagi pul oqimlarining to'planish va taqsimlanish tamoyili ularning kapital tuzilishi va tarkibini belgilaydi. Sug'urta kompaniyalari o'zining asosiy faoliyatidan tashqari boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanishi bevosita fond bozori bilan bog'liq jarayon hisoblanadi.



3-rasm. Sug'urta kompaniyalarining fond bozorida faoliyat turlari⁹

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy resurslari deb, sug'urta shartnomalari tuzilgan paytdan boshlab ular bo'yicha majburiyatlarni bajarilishigacha bo'lgan davr mobaynida, sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta va qayta sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish, shuningdek, dividend, investitsiya, xodimlarni moliyaviy rag'batlantirish, sug'urta mahsulotlarini sifatini oshirish va takomillashtirish uchun foydalaniladigan pul daromadlari va tushumlariga aytiladi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining tuzilishi¹⁰

Суғурта бозорининг тuzилиши	01.01.2021	01.01.2022	O'zgarishi, %da
Sug'urta kompaniyalari soni	40	42	105
shu jumladan, hayot sug'urta kompaniyalari	8	8	100
Sug'urta brokerlari soni	5	5	100
Aktuariylar soni	5	5	100
Sug'urta agentlari soni	8900	9536	107
shu jumladan, yuridik (YATT, MCHJ va boshqalar)	2639	2774	105
To'lovlarni kafolatlash fondiga a'zo bo'lgan sug'urta (qayta sug'urta) kompaniyalari soni	19	23	121
Jami ustav kapitali mln.so'mda	1439193	1545784	107,4

⁹ Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

Fond bozorida vositachilik xizmatini ko'rsatuvchi broker, treyderlar shuningdek, fond birjalari uchun ham sug'urtalangan qimmatli qog'ozlarga qiziqish hamda talab nisbatan yuqori bo'ladi. Sug'urtalanmagan qimmatli qog'ozlardan ko'ra sug'urtalangan qimmatli qog'ozlar yuqori moliyaviy barqarorlikka ega bo'ladi.

Dissertatsiyaning “O‘zbekiston kapital bozorida institutsional investorlar faoliyatining joriy holati” deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston kapital bozorida institutsional investorlar faoliyatining me'yoriy-huquqiy jihatlari, kapital bozorida institutsional investor sifatida banklar faoliyati, sug'urta kompaniyalarining kapital bozorida investorlik faoliyati tahlil qilingan va tegishli xulosa shakllantirilgan.

2-jadval

O‘zbekiston kapital bozorining asosiy ko‘rsatkichlari¹¹

№	Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	2018y.	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.
1.	Erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlarga asoslangan bozor kapitallashuvi	Trln.so‘m	59,64	99,70	149,78	153,83	167,64
	Erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar umumiy qiymati	% YAIMga nisbatan	13,98	18,72	24,74	20,83	18,87
2.	Erkin muomaladagi korporativ aksiyalarning umumiy qiymati	Trln.so‘m	59,44	99,21	149,50	153,05	166,76
		% YAIMga nisbatan	13,93	18,62	24,69	20,73	18,77
3.	Erkin muomaladagi korporativ obligatsiyalarning umumiy qiymati	Trln.so‘m	0,20	0,49	0,28	0,78	0,87
		% YAIMga nisbatan	0,05	0,09	0,05	0,11	0,10
4.	Davlat qimmatli qog'ozlarning umumiy qiymati	Trln.so‘m	47,37	74,56	127,60	125,32	134,58
		% YAIMga nisbatan	11,10	14,00	21,07	16,97	15,15

Jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, kapital bozorining asosiy ko'rsatkichlari yildan yilga o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlarga asoslangan bozor kapitallashuvi 2018-yilda 59,6 trln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 167,6 trln.so'mgacha, ya'ni 2,1 barobarga o'sgan. Erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar umumiy qiymati YAIMga nisbatan 2018-yilda 13,9 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yil yakunida 18,8 foizgacha oshgan. Davlat qimmatli qog'ozlarning (aksiyadorlik jamiyatlarida mavjud bo'lgan davlat ulushi keltirilgan) umumiy qiymati 2018-yilda 47,3 trln.so'm, YAIMga nisbatan 11,1 foiz bo'lgan bo'lsa, 2022-yil yakuniga kelib qiymati 134,5 trln.so'm, YAIMga nisbatan 15,1 foizgacha o'sgan va bu yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi.

So'ngi yillarda mamlakatimiz kapital bozorini isloh qilish, xususan sohani tartibga solish tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qimmatli qog'ozlar chiqarilishini ko'paytirish, kapital bozori ishtirokchilari munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb

¹¹ www.imv.uz – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

qilish hamda kapital bozori infratuzilmasini zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

3-jadval

2021-2023-yillarda kapital bozorini rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida erishiladigan maqsadli ko'rsatkichlar¹²

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
1	Erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlarga asoslangan bozor kapitallashuvi	trln so'm	1,9	4,9	14,5	45
2	Erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlarning umumiy qiymati	foizda (YAIMga nisbatan)	0,3	0,7	1,9	5
3	Korporativ obligatsiyalarning umumiy qiymati	trln so'm	0,16	0,75	1,88	3,94
		foizda (YAIMga nisbatan)	0,03	0,1	0,3	0,5
4	"Moliya va investitsiya savodxonligi" dasturi asosida qamrab olinadigan aholi va tadbirkorlik subyektlari soni	nafar	-	5 000	20 000	40 000
5	Investitsiya hisob raqamlari soni	yil davomida faol bo'lgan depo hisobvaraqlar	4 000	6 000	10 000	20 000
6	Hududiy investitsiya dasturlari doirasidagi loyihalarning qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali moliyalashtirilgan qismi	foizda (hududiy investitsiya dasturi qiymatiga nisbatan)	-	1	3	5

Kapital bozorini yanada rivojlantirish va qimmatli qog'ozlar chiqarilishini ko'paytirish hamda investorlarni keng jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi hamda farmonga muvofiq 2021-2023-yillarda kapital bozorini rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Dasturga ko'ra kapital bozorining raqobatbardoshligini oshirish va uning kapitallashuvini 2023-yil yakuniga qadar 45 trln so'mga yetkazish, bank tomonidan kreditlashga muqobil bo'lgan samarali moliyalashtirish mexanizmini yaratish belgilangan.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6207-son Farmoniga 2-ilova.

**O‘zbekistonda institutsional investorlarning kapital bozoridagi aktivlari
bo‘yicha ma’lumotlar¹³**

№	Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	2018y.	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.
1.	Sug‘urta tashkilotlarining kapital bozoridagi aktivlari (investitsiya portfellari xajmi)	Trln.so‘m	0,10	0,11	0,19	0,25	0,73
		% qimmatli qog‘ozlarga asoslangan bozor kapitallashuviga nisbatan	5,71	7,45	8,98	9,22	24,36
2.	Tijorat banklarining kapital bozoridagi aktivlari (investitsiya portfellari xajmi)	Trln.so‘m	1,68	1,35	1,90	2,49	2,26
		% qimmatli qog‘ozlarga asoslangan bozor kapitallashuviga nisbatan	93,93	92,08	90,69	90,52	75,39
3.	Investitsiya fondlarining kapital bozoridagi aktivlari (investitsiya portfellari xajmi)	Trln.so‘m	0,01	0,01	0,01	0,01	0,01
		% qimmatli qog‘ozlarga asoslangan bozor kapitallashuviga nisbatan	0,362	0,469	0,331	0,258	0,249
4.	Pensiya jamg‘armasining kapital bozoridagi aktivlari (investitsiya portfellari xajmi)	Trln.so‘m	0	0	0	0	0
		% qimmatli qog‘ozlarga asoslangan bozor kapitallashuviga nisbatan	0	0	0	0	0

O‘zbekistonda institutsional investorlarning kapital bozoridagi aktivlari bo‘yicha ishtiroki holatini tahlil qiladigan bo‘lsak, institutsional investor sifatida asosan tijorat banklari, sug‘urta kompaniyalari va boshqa investitsiya fondlarini faol ishtirokini ko‘rishimiz mumkin. Pensiya jamg‘armasining kapital bozorida institutsional investor sifatida ishtirok etmasligi sababli kapital bozoridagi aktivlari hajmi nolga teng. Tijorat banklari kapital bozorida institutsional investor sifatida faol ishtirokchi hisoblanib, aktivlar hajmi 2018-yilda 1,68 trln.so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 2,26 trln.so‘mga yetgan va o‘shirish tendensiyasiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Kapital bozorini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga¹⁴ asosan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat miqyosida kapital bozorni tartibga solish, rivojlantirish va qimmatli qog‘ozlarni tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi (regulyator) hisoblanadi.

2021-2023-yillarda kapital bozorini rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida erishiladigan ko‘rsatkichlar ham belgilab olingan.

Bunda keltirilgan eng muhim ko‘rsatkich sifatida erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlarning umumiy qiymatini YAIMdagi ulushini 2023-yilga borib 5 foizga oshirish belgilangan. Korporativ obligatsiyalarning umumiy qiymatini ham 2023-yilga borib YAIMdagi ulushini 0,5 foizgacha yetkazish nazarda tutilgan.

¹³www.uzse.uz — “Toshkent” Respublika fond birjasining rasmiy saytidan olingan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Kapital bozorini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5073 sonli qarori.

5-jadval

Fond bozorining hajmi, bitimlar soni va ularning tarkibi bo'yicha ma'lumotlar¹⁵

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	2018y.	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.
1	Fond birjasida savdolar hajmi	Trln.so'm	0,69	0,44	0,58	1,26	4,82
2	Fond bozoridagi bitimlar soni	Dona	13750	32816	36062	71489	80723
3	Imzolangan bitimlarda aksiyalar savdosi	Trln.so'm	0,00	0,00	0,50	1,15	4,71
		% jami imzolangan bitimlarga nisbatan	0,00	0,00	87,24	90,91	97,71
4	Imzolangan bitimlarda obligatsiyalar savdosi	Trln.so'm	0,00	0,00	0,07	0,11	0,11
		% jami imzolangan bitimlarga nisbatan	0,00	0,00	11,65	9,00	2,29

O'zbekistonda so'nggi yillarda davlat qimmatli qog'ozlar savdosi, shuningdek, boshqa aksiyadorlik kompaniyalari tomonidan chiqarilayotgan va ochiq bozorga joylashtirilayotgan qimmatli qog'ozlar savdosi yildan yilga rivojlanib bormoqda.

Fond birjasida savdolar hajmi 2018-yilda qiymati 0,69 trln. so'mlik 13750 dona bitimlar tuzilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 4,82 trln.so'mlik 80 723 dona bitimlar amalga oshirilgan. Imzolangan bitimlarda obligatsiyalar savdosi ham 2020-yildan boshlab amalga oshirilishni boshlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Kapital bozori bo'sh turgan pul mablag'larni to'plash, ularni mavjud infratuzilma orqali kapitalga aylantirish, so'ngra uni ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonlari ishtirokchilari (banklar, korxonalar, firmalar, shu bilan birga mamlakat aholisi) o'rtasida taqsimlash munosabatlarini, qimmatli qog'ozlar, shu jumladan aksiyalar hamda obligatsiyalar bilan oldi-sotdi operatsiyalarini olib boradi. "Kapital bozori" tushunchasining mohiyatini aniqlashtirishning murakkabligi shunda ko'rinadiki, uning infratuzilmasi moliyaviy bozorning qismi hisoblangan pul bozori bilan chambarchas bog'liq va moliyaviy instrumentlar kapital bozori va pul bozori uchun bir xildir.

O'zbekistonda rivojlanayotgan kapital bozorining institutsional mustahkamlash va funksional rivojlanish sur'ati va sifati ko'p jihatdan eng ishonchli emitentlar, yirik institutsional investorlar va tajribali investitsiya institutlari sifatida ishtirok etadigan bank muassasalarining faoliyatiga bog'liq.

Banklarning O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida operatsion faoliyat ko'lamini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar haqida gapirilganda, 4-rasmda ko'rsatilgan fond bozoridagi tijorat banklarining asosiy uchta investitsion afzalliklarini ko'rsatish lozim.

¹⁵ www.uzse.uz — "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy saytidan olingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Fond bozoridagi tijorat banklarining asosiy investitsion afzalliklari		
Banklar tomonidan tegishli investitsion nou-xaulardan mohirona foydalanish	Mijoz bilan bevosita yaqinlikda IT-aloqalarning keng doirasi	Bank biznesini tizimlashtirishda yuqori standartlarga moslashuvchanlik

4-rasm. Tijorat banklarining fond bozoridagi boshqa ishtirokchilarga nisbatan asosiy ustunliklari¹⁶

Banklarning birinchi afzalligi – bu uchinchi shaxslarning xizmatlaridan foydalanish, shuningdek investitsiya vositalarini birlashtirish va rekombinatsiya qilishda moslashuvchanlikka ega bo‘lgan tegishli boshqaruv nou-xaularidan mohirona foydalanish tufayli operatsion ustunlikdir.

Bank muassasalarining qimmatli qog‘ozlar bozorida muvaffaqiyat qozonishining ikkinchi sharti – bu ularning sheriklari va mijozlariga yaqinligini hisobga olgan holda IT-aloqalarni amalga oshirish qobiliyatidir.

Banklarning uchinchi afzalligi sifatida, xalqaro bank nazorati standartlarini hisobga olgan holda, ular tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarning yuqori darajadagi egiluvchanligi sifatida xizmat qiladi.

6-jadval

O‘zbekistonda tijorat banklarining investitsiya portfeli tarkibining oxirgi 5 yildagi tahlili, mln.so‘m¹⁷

№	Yil	Investitsion portfel, jami	шундан:				boshqalar
			davlat qimmatli qog‘ozlari	korporativ aksiyalar	korporativ obligatsiyalar	aksiyadorlik jamiyatlaridagi ulushlar	
1	2017	1 644 298	-	11 181	175 502	1 002 645	454 970
2	2018	2 015 704	413 362	29 941	124 138	983 895	464 368
3	2019	3 298 760	1 192 915	29 475	101 738	1 226 729	747 903
4	2020	9 418 229	6 517 289	44 882	106 336	1 889 606	860 116
5	2021	18 157 397	14 302 441	55 659	118 156	2 395 927	1 285 214
6	2022	28 854 198	23 354 972	101 353	286 973	2 116 894	2 994 006

Tijorat banklarining rivojlanayotgan qimmatli qog‘ozlar bozorida eng yirik institutsional investor sifatida ishtirok etishiga moyilligi, ularning ko‘pchiligi kapitallashuv darajasi yuqori, uning turli segmentlari holati to‘g‘risida kuchli ma’lumot bazalariga, shuningdek, investitsiyalarni boshqarish sohasidagi malakali mutaxassislariga ega ekanligi bilan izohlanadi.

O‘zbekiston tijorat banklari emitentlar va investor uchun ham keng ko‘lamli investitsiya xizmatlarini ko‘rsatish uchun samarali moliyaviy yirik bozorlarni yarata oladilar.

¹⁶ Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁷ www.cbu.uz – O‘zbekiston Markaziy bankining rasmiy veb sayti orqali berilgan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

O‘zbekistonda tijorat banklarining kapital bozoridagi ishtiroki faolligini yuqorida ham ta’kidlab o‘tdik. Mazkur jadval ma’lumotlarida ham buni yana bir bor tasdig‘ini ko‘rishimiz mumkin, jumladan, tijorat banklarining investitsiya portfeli tarkibi yildan yilga o‘shish tendensiyasiga ega. Birgina 2017-yilda investitsiya portfeli hajmi 1 644 298 mln.so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 28 854 198 mln.so‘mga yetgan va 25 barobarga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin.

7-jadval

“Toshkent” RFB AJ aksiyadorlik kapitali tuzilmasi¹⁸

№	Aksiyadorlar nomi	Ustav fondidagi ulushi	
		%	Dona
1.	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	50	8 789 063
2.	Korean Stock Exchange (Koreya Fond birjasi)	25	4 394 530
3.	“Asaka” ATB	6,25	1 098 633
4.	“Xalq Banki” ATB	6,25	1 098 633
5.	“O‘zsanoatqurilishbank” ATB	6,25	1 098 633
6.	O‘zbekiston Respublikasi TIF“Milliy banki”	6,25	1 098 633
Jami		100	17 578 125

Shuni ta’kidlash joizki “Toshkent” RFB AJ aksiyadorlik kapitali tuzilmasida 4 ta davlat ulushi yuqori bo‘lgan tijorat banklari teng miqdorlarda (6,25 foiz) fond birjasi aksiyadorlari hisoblanadi. Davlatning ulushi 50 foiz hisoblanib, “nazorat paketi” aynan davlatning hissasiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, boshqaruvga ilg‘or xorijiy tajribalarni jalb etish maqsadida 25 foizlik ulush bilan aksiyadorlar safidan Korean Stock Exchange joy egallagan.

8-jadval

O‘zbekistonda eng yirik investitsiya portfeliga ega bo‘lgan tijorat banklarining investitsiya portfeli tarkibi, mln.so‘m (2023-yil 1-yanvar holatiga)¹⁹

№	Bank nomi	Investitsion portfel, jami	Davlat qimmatli qog‘ozlari	Korporativ aksiyalar	Korporativ obligatsiyalar	Aksiyadorlik jamiyatlaridagi ulushlar	boshqa
1	Ipoteka-bank	4 165 502	4 030 305	22 512	0	107 158	5 527
2	Xalq banki	4 150 225	3 983 806	58 312	8 000	107	100 000
3	O‘zsanoat qurilish bank	2 990 977	2 747 025	0	5 780	69 290	168 883
4	O‘zmilliy bank	2 772 619	1 303 849	5 780	148 277	1 314 713	0
5	Asaka bank	2 387 381	1 207 194	0	7 000	25 625	1 147 562

Keltirilgan jadvalda eng yirik investitsiya portfeliga ega bo‘lgan 5 ta davlat ulushiga ega bo‘lgan tijorat banklarining ma’lumotlari keltirilgan. Bunda eng yuqori investitsiya portfeliga 4 030 305 mln.so‘mlik davlat qimmatli qog‘ozlari hisobiga Ipoteka bank egalik qilmoqda. Xalq banki ham 3 983 806 mln.so‘mlik

¹⁸ A.Ibodullayev. Uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozorining tarkibiy tuzilmasida “Toshkent” Respublika fond birjasining tutgan o‘rni. <http://papers.conference.sbt.sue.uz/index.php/DIIEAS/article/view/114>

¹⁹ Tijorat banklari yillik hisobotlari assida muallif tomonidan tayyorlandi.

davlat qimmatli qog‘ozlari hisobiga ikkinchi eng yirik investitsiya portfeliga ega tijorat banki hisoblanadi. Milliy bank esa 1 303 849 mln.so‘m qiymatidagi davlat qimmatli qog‘ozlari va 1 314 713 mln.so‘mlik aksiyadorlik jamiyatlaridagi ulushlari hisobiga respublikadagi yirik tijorat banklaridan hisoblanadi.

Institutsional investor sifatida sug‘urta kompaniyalarining kapital bozoridagi faoliyatiga turli xil omillar ta’sir qiladi.

Quyida keltirilgan jadval ma’lumotlari shundan dalolat beradiki, sug‘urta kompaniyalarining fond bozoridagi faoliyatiga jamiyatda va iqtisodiyotda yuz berayotgan barcha siyosiy, iqtisodiy o‘zgarishlar ta’sirini o‘tkazadi. Bu esa, sug‘urta kompaniyalarining fond bozorida emissiya faoliyatini olib borishda bunday omillarni hisobga olish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasida sug‘urta sohalari 2 ga, ya’ni “hayotni sug‘urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i, mehnat qobiliyati va pul jamg‘arish bilan bog‘liq manfaatlarini sug‘urta qilish) va umumiy sug‘urta (shaxsiy, mulkiy sug‘urta, javobgarlikni sug‘urta qilish, moliyaviy risklar sug‘urtasi hamda hayotni sug‘urta qilish sohasiga taalluqli bo‘lmagan boshqa sug‘urta turlari)”²⁰ ga bo‘lingan.

9-jadval

Sug‘urta kompaniyalarining fond bozoridagi faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar tasnifi²¹


Umumiy omillar	Umumiy omillar tarkibi
Makroiqtisodiy omillar	<ul style="list-style-type: none"> •mamlakatda iqtisodiyotning umumiy holati; •me’yoriy-huquqiy hujjatlar; •inflyatsiya darajasi; •milliy valyutaning barqarorligi; •valyutani erkin konvertatsiya qilinishi; •bozor infratuzilmasi va boshqalar.
Fond bozoridagi umumiy holat	<ul style="list-style-type: none"> •fond bozori konyunkturasi; •fond bozorida axborot oshkoraligi; •emitentlarning moliyaviy holati; •fond bozorida sof raqobat muhitining mavjudligi va boshqalar
Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi va Kapital bozorini rivojlantirish agentliklari tomonidan sug‘urta kompaniyalarining fond bozoridagi faoliyatini tartibga solish	<ul style="list-style-type: none"> •sug‘urta kompaniyalari qimmatli qog‘ozlar emissiyasini tartibga solish; •sug‘urta kompaniyalarining emissiya operatsiyalarini amalga oshirishga doir o‘rnatilgan me’yorlar
Sug‘urta kompaniyalarining fond bozoridagi faoliyati bilan bog‘liq siyosati	<ul style="list-style-type: none"> •sug‘urta menejmenti; •sug‘urta kompaniyalarining fond bozoridagi emissiya, dividend, investitsiya va professional faoliyati bilan bog‘liq siyosati va boshqalar
Tashqi omillar	<ul style="list-style-type: none"> •jahon iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar; •siyosiy inqirozlar; •turli xil tabiiy ofatlar va boshqalar

Bugungi kunda O‘zbekiston sug‘urta bozorida 41 ta sug‘urta tashkiloti faoliyat ko‘rsatib, shundan 33 tasi umumiy sug‘urta sohasida va 8 tasi hayotni sug‘urta qilish sohasida²², 2022-yildan boshlab sug‘urta tashkilotlarining barchasi “Aksiyadorlik jamiyati” shaklida faoliyat yuritib kelmoqda.

²⁰ O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni 6-modda <https://lex.uz/acts/5739117>

²¹ Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.


²² Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligining 1 chorak ko‘rsatkichlari. Manba: www.imda.uz agentlikning rasmiy veb sayti



